



KOGNITIV SEMANTIKA – TILSHUNOSLIKNING YANGI YO'NALISHI SIFATIDA

<https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.080>

*A. Ixtiyorov,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
Qo'qon davlat universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kognitiv semantika antropotsentrik paradigmaning asosiy yo'nalishlaridan biri ekanligi, uni kognitiv grammatika, kognitiv psixologiya kabilar bilan aloqadorligi hamda uni yuzaga kelish xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: konsept, kognitiv semantika, kognitiv grammatika, kognitiv psixologiya konseptuallashtirish, kategoriyalashtirish, analiz, sintez

КОГНИТИВНАЯ СЕМАНТИКА КАК НОВОЕ НАПРАВЛЕНИЕ В ЛИНГВИСТИКЕ.

Аннотация. В данной статье рассматривается тот факт, что когнитивная семантика является одним из основных направлений антропоцентрической парадигмы, её связь с когнитивной грамматикой, когнитивной психологией и т. д., а также её возникновение.

Ключевые слова: концепт, когнитивная семантика, когнитивная грамматика, когнитивная психология, концептуализация, категоризация, анализ, синтез

COGNITIVE SEMANTICS AS A NEW DIRECTION IN LINGUISTICS

Annotation. This article discusses the fact that cognitive semantics is one of the main directions of the anthropocentric paradigm, its relationship with cognitive grammar, cognitive psychology, etc., and its emergence.

Keywords: concept, cognitive semantics, cognitive grammar, cognitive psychology, conceptualization, categorization, analysis, synthesis

KIRISH

Ma'lumki, o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab tilshunoslikdagi ilmiy tadqiqotlar paradigmasida o'zgarishlar yuz bera boshladi. XXI asr bo'sag'asida an'anaviy va struktur tilshunoslik bag'ridan antropolingvistika o'sib chiqdi. An'anaviy tilshunoslikda til hodisalarini

o‘rganishda “analiz” usuli yetakchilik qilgan bo‘lsa, sistemaviy tilshunoslik tilni sistema, sistemalilik nuqtai nazaridan tadqiq etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning asosiy tadqiq usuli “sintez” bo‘lganligi e’tirof etila boshlandi. Hozirgi kunga qadar bo‘lgan ichki tilshunoslik til sistemasi va u bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishga katta e’tibor berdi va bu yo‘nalishda salmoqli muvaffaqiyatlarga erishdi. Bugungi kun tilshunosligida ichki tilshunoslik muammolari bilan bir qatorda, til bilan bog‘lanishda bo‘lgan hodisalar va omillarga, xususan, til va so‘zlovchi (tinglovchi), til va kommunikasiya jarayoni (muhit, omillar), til va mantiq, til va olamni bilish, til va madaniyat kabi munosabatlarni jiddiy tadqiq etishga kirishilmoqda. Shu munosabat bilan tilshunoslikning lingvistik pragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika kabi sohaları shakllanib bormoqda. O‘z-o‘zidan tushuniladiki, bu yo‘nalishlar asosida til sohibi bo‘lgan inson markaziy figura hisoblanadi. Shu boisdan ham ko‘p tarmoqli yangi tilshunoslikning antropolingvistika deb nomlanishi ham bejiz emas. Ushbu tadqiqotlar, asosan, V.Gumboldtning g‘oyalariga tayanadi. U tilda ma'lum bir xalqning mentaliteti, ruhiyati aks etishini e'tirof etib, borliqni anglash tarzlarini ko'rsatib o'tgan edi[2; 148].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kognitiv tilshunoslik – bu nafaqat alohida lingvistik yo‘nalish, balki bilimlarning yangi ilmiy paradigmasidir, bu lingvistika o‘z oldiga yangi vazifalar qo‘ygan, shuningdek, unga yondosh bo‘lgan lingvistik sohalaridagi muammolarni hal etish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi tilshunoslikdir. Amerika va Yevropa kognitiv tilshunoslarining buyuk namoyandalaridan: D.Gerarts, R.Djekendorf, M.Djonson, Dj.Lakoff, R.Langaker, Ch.Filmor kabilar mazkur lingvistikani shakllanishiga munosib hissa qo‘shganlar.

Rus tilshunosligida kognitiv lingvistikaning nazariy g‘oyalari Ye.S.Kubryakova va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan. Zamonaviy kognitiv lingvistikaning tadqiq doirasi keng bo‘lib, boshqa yangi yo‘nalishlar singari terminlar apparatida, o‘rganish predmeti va vazifalari, tadqiq metodlari borasida munozarali masalalar mavjuddir. Bunda psixologiyadagi kognisiya atamasi tahlili kognitiv tilshunoslik atamasi mazmunini chuquroq anglash imkonini beradi. Kognisiya atamasi (lot. cognito) so‘zidan olingan bo‘lib, bilish, anglash degan ma'noni ifodalaydi. Ushbu termin dastlab psixologlar tomonidan kognitiv, psixologik nazariyalarni nomlashda XX asrning birinchi yarmida Amerika psixologiyasida yetakchilik qilgan “alternativ bixeviorizm” yo‘nalishida qo‘llanilgan. Kognitiv psixologiya – bilish jarayonlari psixologiyasi: idrok etish, diqqat, xotira, tasavvur etish, tafakkur kabilarni o‘rganadi. Kognitiv psixologiya yo‘nalishi namoyandalaridan biri Robert Solsoning fikriga ko‘ra, “kognitiv psixologiya - borliq haqidagi ma'lumotlarni qanday qabul qilishi, bu ma'lumot inson tomonidan qanday tasavvur qilinishi, u xotirada qanday saqlanishi hamda ushbu bilimlar bizning diqqatimiz va xulqimizga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi”[9; 28]. Aynan kognitiv psixologiya unga yondosh bo‘lgan kognitiv fanlar uchun yadro hisoblanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Shuni qayd etish lozimki, kognitiv fanlar yuzaga kelgunga qadar ham inson dunyoni bilishga qiziqqan, barcha kognitiv fanlarning shakllanishi antik davrlardan boshlangan hamda

Platon va Aristotel kabi olimlarning bilimning paydo bo‘lishi haqidagi g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lgan. XIX-XX asrlarda faylasuflar va psixologlar nazariy va eksperimental metodlardan foydalangan holda kognitiv jarayonlar va dunyoni anglashda tilning roli xususida atroflicha fikr yuritganlar. Biroq Dj. Andersonning fikriga ko‘ra, “kishilarga faqatgina so‘nggi 125 yilda shu narsa ayon bo‘ldiki, insonning bilish jarayoni falsafiy fikrlashgagina emas, balki ilmiy bilish predmeti bo‘la olishi mumkinligini anglab yetdilar[1; 8]”

Gumanitar va tabiiy fanlar (kognitiv psixologiya, lingvistika, antropologiya, neyrofiziologiya, neyropsixologiya) ni o‘ziga birlashtirgan kognitiv fanlar inson idroki, tafakkuri hamda u bilan bog‘liq mental jarayonlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Shunday qilib, kognitiv fanlar markazida – kognisiya – ma‘lumotni qabul qilib olish bilan bog‘liq bo‘lgan ongli va ongsiz mental harakatlar yig‘indisi, uni qayta ishlanishi, xotiradan ko‘chirilishi, tushuncha va obrazlarning shakllanishi, muammoni rasional (aqliy) yechimiga imkoniyatlar yig‘indisi jamlanadi[6; 3].

Psixologlar idrok, diqqat, xotira bilan bir qatorda, insonning kognitiv layoqati qatoriga tilni ham kiritishadi. 1967 yilda kognitiv psixologiya bo‘yicha birinchi kitob chop etiladi. Bu Ulrik Nayserning “Kognitiv psixologiya” (Cognitive Psychology) monografiyasi bo‘lib, uning o‘nta bobidan 6 tasi idrok va diqqat masalalariga bag‘ishlangan bo‘lsa, to‘rtta bobi – til, xotira va tafakkur tadqiqiga bag‘ishlangan. Kognitiv psixologiya bo‘yicha so‘nggi ishlarda ko‘proq oliy psixik jarayonlar tadqiqiga e‘tibor qaratilmoqda. Masalan, Dj. Andersonning “Kognitiv psixologiya” kitobining 2 ta bobi idrok va diqqatga, 9 ta bobi esa til, xotira va tafakkur tadqiqiga bag‘ishlanadi.

Kognitiv yondashuv asosida ish olib borayotgan rus psixologlari ham bilish jarayonida tilning roli muhimligini alohida e‘tirof etishadi. Xususan, T.G.Skrebsovaning fikriga ko‘ra, insonning kognitiv qobiliyatlari va bilish modellarini ular tomonidan o‘zlashtirilishi, tilda bevosita ifodalanishi – kognitiv tilshunoslikning dasturiy tezislari hisoblanadi [8; 8-12].

Kognitiv tilshunoslikning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida vujudga kelishi Rene Dirven va boshqa Yevropa olimlari tomonidan 1989 yilning bahorida Germaniyaning Duysberg shahrida tashkillangan simpozium bilan bog‘lanadi. Ushbu simpoziumda kognitiv tilshunoslik xalqaro assosiasiyasi, shuningdek, mazkur yo‘nalish bo‘yicha jurnal chop etish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. 1985 yilda V.I. Gerasimov xorij kognitologlarining asosiy ishlarini sharhlagan holda kognitiv lingvistikada bir qator yo‘nalishlarni ajratadi: U.Cheyfning “psixosemantikasi”, T.Vinogradning “prosedur semantikasi”, T.van Deyk va boshqalarning “Tilni qo‘llashning kognitiv nazariyasi” kabi mavzulardagi ma‘lumotlarni aniqlashtirdi. 1988 yilda “Новое в зарубежной лингвистике” jurnalining tilni ifodalashning kognitiv aspektiga bag‘ishlangan 23 -tomi chop etildi.

Shunday qilib, sekin-asta kognitiv tilshunoslikni qiziqtiradigan tadqiqotlar doirasi kengaya bordi. Kognitiv tilshunoslik terminologik apparatining shakllanishi boshqa fanlar avvalo, kognitiv psixologiya ta‘sirida sodir bo‘lgan va bo‘lmoqda. Shu bois ham til vositalari orqali namoyon bo‘luvchi mental strukturalarni ifodalash uchun tilshunoslar hozirgacha

kognitiv psixologiya va geshtalt-psixologiya terminlariga yangi lingvistik mazmun kiritgan holda foydalanib kelishmoqda (freym, ssenariy, skript, geshtalt, obraz-sxema va h.k.). Kognitiv tilshunoslik tilni ma'lumotni tashkil etuvchi, ishlov beruvchi va yetkazib beruvchi vosita sifatida qaraydi. Tabiiyki, ushbu jarayonlarni bilishning subyektisiz, so'zlovchi, til egasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan kognitiv lingvistika tilshunoslikda tilga antroposentrik nigoh bilan qarovchi yetakchi yo'nalish sifatida shakllandi. Dunyoning lisoniy manzarasi, tilda inson omili (Роль человеческого фактора в языке, 1987), lisoniy shaxs (Языковой личность, Karaulov, 1987) kabilarni o'rganish zamonaviy kognitiv tadqiqotlar uchun poydevor yaratdi. Endi struktur tilshunoslik metodlaridan farqli o'laroq, til hodisalarini o'rganishda boshqacha metodlar, xususan, tabiiy fanlar, psixologiya, neyrofiziologiya, kompyuter lingvistikasi metodlaridan foydalanila boshlandi. Psixolingvistika tilshunoslikni kognitiv paradigmaga o'tishiga metodologik jihatdan zamin yaratdi [5; 32].

Sh.Safarovning fikricha, XX asrning oxiri XXI asr boshlariga kelib fan-texnika shu qadar rivojlandiki, bu davrda tilshunoslik fanining an'anaviy uslub va xulosalari intellektual axborot texnologiyalari amaliyotda yuzaga kelayotgan turli-tuman savollarga javob topishda qiyinchilik seza boshlaydi. Til tizimini va nutqiy faoliyat mahsuli bo'lgan matn qurilishini shu paytgacha filologik nuqtai nazardan tahlil qilib kelayotgan bu fan doirasi endilikda idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish faoliyatlariga oid tushuncha va kategoriyalar bilan kengaydi. Buning natijasida tilshunoslikning mantiq, psixologiya, bilish nazariyasi kabi kognitiv fan sohalari bilan hamkorlikka ehtiyoji yanada kuchaydi. Ushbu hamkorlik natijasi o'laroq kognitiv tilshunoslik yuzaga keldi [7; 7-10].

Kognitivshunoslikda asosiy e'tibor inson bilimini qayta ishlash, saqlash va translyasiya qilish usul va vositalariga qaratiladi, insonning kognitiv dunyosi esa uning faoliyati va xulq-atvori bo'yicha o'rganiladi.

Kognitiv tilshunoslik dastlab AQSh da "kognitiv grammatika" nomi bilan vujudga kelgan bo'lsa, Rossiyada esa "kognitiv semantika" termini qo'llanilgan. N.D.Arutyunova, A.Vejbiskaya, Yu.S.Stepanov, Ye.S.Kubryakova, V.N.Teliya kabilar ham kognitiv tilshunoslikka aynan semantika orqali kirib kelganlar. Bunday yondashuvni shakllanishiga quyidagi semantik nazariyalar: semasiologik yondashuv (Yu.D.Apresyan, M.V.Nikitin va boshqalar), tilni mantiqiy taxlil qilish nazariyasi (N.D.Arutyunova va boshqalar), semasiologik grammatika (Yu.S.Stepanov), nutqiy tafakkur nazariyasi (S.D.Kasnelson), funksional-semantik maydon (A.V.Bondarko), germenevtika (G.I.Bogin va boshqalar), nutqiy faoliyatning psixolingvistik konsepsiyasi (A.R.Luriya, A.A.Leontev) va boshqalar ta'sir etdi. Yuqorida qayd etilgan manbalardan tashqari kognitiv tilshunoslik bir necha manbalarning aloqadorligi natijasida paydo bo'lgan: 1) Kognitiv fanlar yoki kognitologiya, uni o'rganish predmeti inson bilimini tuzilishi va qo'llanilishi hisoblanadi, u injenerlikka oid fanlar taraqqiyoti natijasida shakllangan bo'lib, suniy intellekt sifatida mashxur bo'lgan. Kognitiv fanlar – bilimlar strukturasi, ma'lumotlarni qayta ishlash va uni xotirada saqlash, undan kerakli ma'lumotlarni

ajratish, ma'lumotlarni onson ongida hamda til formalarida namoyon qiluvchi tushuncha ma'lumotlari nazariyasidan o'zlashtirilgan. U avvalo, inson ongi qanday strukturadan tashkil topgan, inson dunyoni qanday anglaydi, dunyo haqidagi qaysi ma'lumotlar bilimga aylanadi, mental bo'shliq qanday yaratiladi kabi savollarga javob berishga xarakat qiladi.

2). Kognitiv psixologiya ham kognitivshunoslikning manbai xisoblanadi. Ma'lumki, tilshunoslik o'z taraqqiyoti davomida uch marta psixologiya bilan kesishishi kuzatiladi. XIX asrning 80- yillarida mladogrammatizm, XX asr o'rtalarida psixolingvistikaning paydo bo'lishi, XX asrning 80-90- yillarida kognitiv tilshunoslikning paydo bo'lishi ikki soha o'zaro tutashuvining asosidir. Kognitiv tilshunoslik kognitiv psixologiyadagi kognitiv model va konseptual tushunchalardan o'zlashtirilgan.

3). Kognitiv tilshunoslikning asosiy manbalaridan biri - bu lingvistik semantikadir. Ba'zi tadqiqotchilar til semantikasi ortida umumiyroq tushuncha kategoriyalarini ko'radilar, ayrimlari uni inson bilish orqali moddiy borliqni o'zlashtirishi natijasi sifatida tasavvur qiladilar. Kognitiv tilshunoslikda olingan ko'p natijalar nafaqat til semantikasida qo'llanilgan, balki kognitiv tilshunoslikda ishlab chiqilgan "prototip" tushunchasi fonologiya, morfologiya, dialektologiya va boshqalarda ham qo'llanilgan.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, kognitivshunoslik strukturasida shu soxaga dahldor qator yo'nalishlar mavjud bo'ladi. Xususan, psixologiya, mantiq hamda fanlar takomili va o'zaro differensiyalashishi natijasida kognitiv tilshunoslik ajralib chiqdi. Kulturologiya va tilshunoslikning munosabati esa "lingvokulturologiya" fanlarini vujudga keltirdi. Kognitiv tilshunoslikda asosiy diqqat bilim kategoriyasiga, uning turlari muammosiga hamda mazkur bilimlarning tilda aks etishiga qaratiladi.

Kognitiv yondashuv - tilga xos bo'lgan voqea-hodisalarni bilish nazariyasi yordamida izohlab berish usullaridan biridir. Kognitiv tilshunoslik insonning bilish faoliyatini o'rganuvchi fanlar tarkibiga kiradi hamda uning asosiy maqsadi til tizimining olamni bilish jarayonidagi ishtiroki va ulushini aniqlashdan iboratdir.

V.Z.Demyankov kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi inson tomonidan tilni o'zlashtirish mexanizmlari hamda bu mexanizmlarning tarkibini tizimli tasvirlash va tushuntirishdan iborat, deb ta'riflaydi[3; 61-64].

Tilshunos olim O'. Yusupovning fikriga ko'ra, kognitiv lingvistikaning vazifasi: 1) insondagi bilimlarning paydo bo'lishida tilning rolini aniqlash; 2) olam va undagi narsalarni kategoriyalashtirish, tushunchalar hosil qilib, ularni turlarga bo'lish, konseptuallashtirish va atash jarayonlarini tushunish; 3) konseptual sistema bilan til sistemasi o'rtasidagi munosabatni aniqlash; 4) olamning lisoniy va kognitiv manzaralari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yechish kabi masalalar bilan shug'ullanadi [10; 49-50].

Kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadlaridan biri turli yashash muhitiga, turmush tarziga, intellektual salohiyatiga, dunyoqarashiga, ruhiyatiga, madaniyatiga ega bo'lgan xalqlarning olamni o'zlariga xos va mos tarzda bilishlari (ko'rishlari), ular bilan bog'liq

tushunchalar, ushbu tushunchalarning qay yo‘sinlarda lug‘aviy birliklar ma'nolarini shakllantirayotganliklari masalalarini tadqiq etishdan iboratdir.

Insonning kundalik voqea-hodisalarga munosabati tilning kognitiv nazariyasining amalda qo‘llanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Zotan, biz yillar davomida hosil bo‘lgan hayot tajribamiz, bilim va ko‘nikmalarimiz asosida voqelikdagi u yoki bu tarzda mavjud bo‘lgan narsa-predmetlar, voqealar, hodisalar haqida fikrlay olamiz va ana shunga tayangan holda o‘zaro so‘zlashuv jarayonida nutqimiz bekamu ko‘stligiga erishamiz.

Ma'lumki, bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan boshlanadi. Sezgi idroki tafakkurda voqelikning ushbu parchasi ramzining shakllanishi uchun zamin tayyorlaydi. Voqelik idroki jarayonida bilish faoliyati ijrochisi – sub'ekti va ushbu faoliyat ob'ektini o‘ziga xos o‘zaro qarama-qarshiligiga asoslangan subyekt-obyekt munosabati yuzaga keladi. Bilish faoliyatining barcha bosqichlari xuddi shu munosabat asosida shakllanadi.

XULOSA, obyektiv borliqni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish jarayonlari o‘rtasida bog‘liqlik mavjuddir. Borliq so‘zlashuvchilar tomonidan lisoniy vositalar orqali mushohada etiladi. Ular tilda verbalizatorlar deb nomlanadi, bu murakkab jarayonlar barchasi mavjud kognitiv-semantik kategoriyalarni tilda voqelantirish uchun xizmat qilishga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Kognitiv grammatika nazariyasi kognitiv-semantik kategoriyalar, kognitiv-semantik konstantalar yoki universal tavsifga ega bo‘lgan konseptlarga asoslanuvchi obyektiv dunyo haqidagi bilimlar tizimining kategoriyalashuviga bevosita aloqadordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Андерсон Дж. Когнитивная психология. 5-е изд. СПб., 2002.с.18.
2. Гумбольдт В. Фон. Избранные труды по языкознанию. М., 1984. С. 148
3. Демьянков, Ю. Г. Панкрац, Л. Г. Лузина; Под общ.ред. Е. С. Кубряковой. М., 1996. С.81-84
4. Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественной литературе и в научном языке // Вопросы филологии. – М.: МГУ, 2001. - №1 - С. 35-47.
5. Лукашевич Е. В. Когнитивная семантика: эволюционно-прогностический аспект. М.; Барнаул, 2002.с.32
6. Кубрякова Е. С. и др. Краткий словарь когнитивных терминов / В. 3.
7. Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. - б.7
8. Скребцова Т. Г. Американская школа когнитивной лингвистики. СПб., 2000.с.8
9. Солсо Р. .Когнитивная психология. М., 2002, с.28.
10. Юсупов Ў. Маъно, тушунча, ва лингвокультуре атамалари хусусида. Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида//Илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент. 2011. Б. 49-50